

Mahmudxon Dovidxonov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
doktoranti
E-mail: mahmudxondovidxonov1@gmail.com*

YUMSHOQ KUCH KONSEPSIYASIDA MADANIY DIPLOMATIYA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalqaro munosabatlarda yumshoq kuch (soft power) konsepsiyasining mazmun-mohiyati va undagi madaniy diplomatiyaning o'rni tahlil qilingan. Madaniyatning tashqi siyosatdagi vosita sifatida tutgan strategik ahamiyati, xorijiy jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlil asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *madaniy diplomatiya, yumshoq kuch, tashqi siyosat, xalqaro tajriba.*

CULTURAL DIPLOMACY IN THE CONCEPT OF SOFT POWER

Abstract. *This article analyzes the essence of the concept of soft power in international relations and the role of cultural diplomacy in it. The strategic importance of culture as a tool in foreign policy and its potential to influence the minds of foreign publics are revealed. Practical recommendations are also developed based on a comparative analysis of international experience.*

Keywords: *cultural diplomacy, soft power, foreign policy, international experience*

Ilk bor Qadimgi Yunoniston davrida bahs mavzu bo'lgan kuch tushunchasi o'rta asrlar va undan keyingi davrda ko'plab mutafakkirlar, ayniqsa, Nikkolo Makiavelli tomonidan o'z davrida jiddiy tadqiq qilingan. Kuch tushunchasi o'tmishdan kunimizgacha transformatsiyaga uchrab, ilmiy adabiyotlarda hokimiyat tushunchasining muqobili sifatida qo'llanila boshlandi. Mutaxassislar fikricha xalqaro munosabatlarda kuchning to'rt shakli mavjud. Bular: qattiq kuch, aqlli kuch, milliy kuch va yumshoq kuch.

Qattiq kuch odatda nishonga olingan mamlakatning iqtisodiy va harbiy kuch elementlarini nishonga olish va ushbu mamlakatni kuch bilan ishontirish kabi maqsadlarda qo'llaniladi. Qattiq kuchni tasvirlar ekan, Jozef Nay, asosan, harbiy elementga e'tibor qaratadi va iqtisodiy element haqida ko'p gapirmadi [1, 54-b]. Ammo bugungi kunda harbiy kuchdan to'liq samaraga erishish uchun yaxshi iqtisodiy vaziyatda bo'lish kerak. Davlatning milliy xavfsizlik manfaatlari zarur bo'lgan hollarda qattiq harbiy kuch ishlatishdan tortinmasligini ko'rsatish orqali boshqa tomonni o'z qudratiga ishontirish orqali tinchlikni saqlashda ko'pincha samarali bo'ladi. Tinchlik davrida mudofaa qudratidan samarali foydalanish uchun qurolli kuchlar va diplomatiya hamjihatlikda va hamkorlikda bo'lishi kerak. Umumlashtirib aytganda, qattiq kuch bu – davlatlarning harbiy qudrati, o'zini mudofaa qilishda foydalanadigan har qanday kuch ishlatish, kuch qo'llashi tushuniladi.

Yaqin-yaqingacha davlatning kuchi, qudrati bu mamlakatning harbiy kuchi bilan deyarli sinonim edi. Vaqt o'tishi, fan-texnikaning rivojlanishi bilan kuch-qudrat manbalari ham o'zgara boshladi. Bu o'zgarish G'arbda, ayniqsa, AQShda xavfsizlikni ta'minlash amaliyotlarida qattiq kuchdan tashqari yumshoq kuchdan ham foydalangan holda yangi kuch shakllanishini taqozo qildi. Garchi Braziliya, Hindiston va Xitoy kabi mamlakatlarda ham harbiy kuch birinchi o'rinda bo'lsa-da, ko'p hollarda yumshoq kuchdan foydalanish qattiq harbiy kuchdan foydali va samaraliroq ekanligini amaliyotda o'z tasdig'ini topmoqda [2, 31-36-b].

Kuch har doim resurslardan foydalanish orqali yuzaga keladi. Misol uchun, hatto do'stlik signalini yuborish uchun ko'z qisib qo'yish ham yumshoq kuchga eng sodda misoldir. Uning paydo bo'lishi uchun ko'z va mushaklarning ba'zi harakatlari amalga oshirilishi kerak, bu ko'zning miltillashi deb ataladi. Bu harakatlar kuch manbalaridir. Yumshoq kuch resurslari, asosan, o'sha davlatning siyosiy qadriyatlar, madaniyati, tashqi siyosati va iqtisodiyotidan iborat. Jozef Nay madaniyat ushbu reytingda birinchi o'rinda turadi va madaniyatni jamiyat uchun ma'noga ega bo'lgan butun qadriyatlar va amaliyotlar sifatida belgilaydi [3, 55-b].

Bugungi kunda AQSh va Yevropa madaniyati umuminsoniy xususiyatga ega bo'lib, butun dunyoda ta'sirchan xarakterga ega. Uning universalligining eng muhim sabablaridan biri, bu g'arb davlatlarining tashqi siyosatida yumshoq kuchdan foydalanishdir. Yumshoq kuchning ta'siri ovqatlanish madaniyati, musiqa madaniyati, adabiyot madaniyati kabi universal tushunchalardan kattaroq bo'lishi mumkin. Biroq, yumshoq kuchni faqat madaniyat sifatida ko'rish noto'g'ri. Masalan, AQSHda patentlangan Coca-Cola dunyo aholisining eng ko'p iste'mol qiladigan mahsulotlaridan biridir, ammo bu mahsulotni iste'mol qilgan har bir kishi AQSh siyosatini qo'llab-quvvatlaydi degani emas. Jozef Nay yumshoq kuch manbalari va vositalarini quyidagi jadval orqali tushuntirib berishga harakat qiladi.

1-jadval: Yumshoq kuch vositalari va nishonlari.

Yumshoq kuch manbalari	Vositalari	Nishonga oluvchilari
Tashqi siyosat	Hukumatlar, media, NTTlar, xalqaro tashkilotlar	Boshqa hukumatlar va xalqlar
Ichki siyosiy qadriyatlar va siyosat	Media, NTTlar, xalqaro tashkilotlar	Boshqa hukumatlar va xalqlar
Yuksak madaniyat	Hukumatlar, NTTlar, xalqaro tashkilotlar	Boshqa hukumatlar va xalqlar
Ommaviy madaniyat	Media, bozor	Boshqa xalqlar

Manba: [4, 10-b].

Davlatlarning madaniy jozibadorlik konsepsiyasiga qaratilgan madaniy diplomatiya faoliyatining asosiy elementi – madaniyatdir. Umumiy madaniy muloqot asosida madaniy konsensusga erishish mumkin. Mamlakatning madaniy qadriyatlari ushbu davlatning jozibadorligini oshiradi va uning yumshoq kuchining asosiy manbaiga aylanishi mumkin. Madaniy diplomatiyada madaniyat boshqalar tomonidan ixtiyoriy qabul qilinishi, hayratga tushishi va eksport qilingan madaniyatga simpatiya tug'ilishi sabab bo'la olishi kerak. Aks holda, madaniyatning ta'sir kuchi faqat mamlakat chegaralaridan oshib o'ta olmaydi. Madaniy elementlar mamlakat imijini mustahkamlab, uning yumshoq kuchiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa-da, har doim ham kutilgan natijalar kutilgandek bo'lmaydi. Buning sabablaridan biri shundaki, yumshoq kuchni ham xuddi qattiq harbiy kuch vositalariga o'xshab

istalgan nuqtada qo'llagan bilan samarasiz ketishi mumkin. Masalan, tank harbiy harakatlarda muhim qurol, vosita bo'lishiga qaramay u urushning istalgan jabhasida, botqoq yoki o'rmonda ham birdek samaradorlik ko'rsatolmaydi. Yumshoq kuch konsepsiyasida madaniy diplomatiyadan foydalanishda ham umumiy o'xshashliklarni inobatga olgan holda qo'llashgina yaxshi samara beradi.

Globalashuv va texnologiyaning rivojlanishidan so'ng, transmilliy kompaniyalar va nodavlat tashkilotlar davlatlarning yumshoq kuch siyosatini amalga oshiruvchi ishtirokchilarga aylandi. Boshqa tomondan, nodavlat tashkilotlar, davlat muassasalari, elchixonalar, madaniyat vazirliklari, muhojirlar guruhlar, xususiy sektor va global biznes faoliyati yumshoq kuch siyosatini amalga oshirishda ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, ayniqsa, nodavlat notijorat tashkilotlari, nohukumat tashkilotlar vaqt o'tishi bilan yumshoq kuchning muhim subyekti sifatida ko'rila boshladi.

Yumshoq kuch va madaniyat o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Yumshoq kuch davlat madaniyati boshqa mamlakatlar uchun jozibador bo'lgandagina u ta'sir kuchiga aylanadi. An'anaga ko'ra, har bir mamlakatning yumshoq kuchi: an'ana va urf-odatlar, turmush tarzi, taomlari, musiqasi, tili, ko'ngilochar tuyg'usi, ta'lim tizimi kabi unsurlar o'sha mamlakat madaniyatini shakllantiruvchi va aks ettiruvchi eng asosiy ko'rsatkichlardir. Ma'fura, madaniy an'analar, etnik elementlar, iqtisodiy tizim va turmush tarzi kabi komponentlar uzoq tarixiy o'tmishdan so'ng haqiqatga aylangan madaniy qudratning eng muhim manbalari hisoblanadi [5, 33-b]. Shu bilan birga, madaniyat yumshoq kuchning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishida muhim rol o'ynaydi. Qaysi nuqtadan qaramang, madaniyat statik mavjudot emas, balki dinamik jarayondir. Madaniyat o'z jamiyati ichida doimo harakatda. Davlatning yumshoq kuchi mazkur davlatning ma'furasi, ijtimoiy tizimi, tashkiliy mexanizmlari, rivojlanish modeli, milliy qadriyatlar, diniy e'tiqodlari, o'zaro ishonch munosabatlari va inson resurslari kabi masalalar bilan bog'liq.

Boshqa tomondan, madaniyat liderlarning qaror qabul qilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Xususan, madaniy qadriyatlar rahbarlarning siyosiy

masalalarni hal qilish uslubiga bevosita ta'sir qiladi. Shu munosabat bilan, rahbarlar o'z sivilizatsiyasiga xos bo'lgan madaniy in'ikoslarni hisobga olgan holda qaror qabul qiladilar. Xalqaro munosabatlar nuqtayi nazaridan, farqli yoki yaqin madaniyatlarning integratsiyasi davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni oshiradi va umumiy manfaatlarni yuqori darajaga olib chiqadi. Yumshoq kuch amaliyotlari madaniy diplomatiya faoliyati orqali yuzaga keladi. Madaniy diplomatiya mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, bu uch soha madaniyat diplomatiya tushunchasining asosini tashkil qiladi [6, 1-b].

Aksariyat G'arb davlatlari qattiq kuchdan foydalanish barobarida turli mamlakatlarda yumshoq kuch bilan ham samarali natijalarga erishganliklarini ko'rdilar. Sanoat inqilobi bilan mustamlakachilik keng tarqaldi, ayniqsa, Fransiya va Angliya o'z tillari, dinlari va madaniyatlarini tarqata boshladi. Ular, ayniqsa, Afrika qit'asidagi missionerlik harakatlari bilan mintaqaning tili va dinini o'zgartirdilar. Fransiya XVII asrda yumshoq kuch ishlatgan birinchi davlatlardan biri edi. U o'z madaniyatini butun Yevropaga tanitdi va fransuz tilini diplomatiya tiliga aylantirdi. Angliya va Fransiya yumshoq kuch ishlata boshladi va mustamlakachi bo'lgan davlatlarga o'z madaniyatini singdirib, xalqqa jozibador bo'la boshladi. Bu borada Hindiston juda yaxshi namunadir. XV asrda Hindistonga bosqinchi sifatida kirgan Angliya 500 yil mustamlaka sifatida foydalangan va mintaqa tili va diniga ingliz va nasroniylilikni qo'shib yuborishga muvaffaq bo'lgan. 1900-yildan beri u mintaqani mustamlakachi sifatida tark etgan bo'lsa ham, ommaviy madaniyat elementlaridan foydalangan holda o'z ta'sirini saqlab qolishda davom etdi. Xususan, futbol va kriket, ommaviy madaniy elementlardan, ayniqsa, sport sohasida foydalanish orqali Hindiston xalqi ustidan yumshoq kuch ishlatishda davom etdi.

Yumshoq kuchning keng tarqalgan elementlaridan biri bu musiqa va kino san'atidir. Gollivud deyilsa AQSh, Bollivud deyilsa Hindiston, seriallar haqida gap ketsa Turkiya kabi mamlakatlar ko'z oldimizga kelishi ham yumshoq kuchning jamiyat va shaxslarning ong ostiga naqadar kuchli ta'siri borligidan dalolat beradi. Turkiya Sovet Ittifoqi davridayoq "Choli qushi" teleseriali orqali teleseriallar eksportini boshladi. AQShdan keyin eng ko'p serial eksport qilgan Turkiya

teleseriallari bugungi kungacha 100 dan ortiq o'lkada 150 ga yaqin serial namoyish etildi [7].

Janubiy Kaliforniya Xalq diplomatiyasi universiteti va "Portlend markazi" nomli nodavlat tashkiloti tomonidan birgalikda yumshoq kuch reytingida yetakchi bo'lgan davlatni aniqlash uchun so'rovnoma o'tkaziladi. So'rovnomada 25 mamlakatdan 10 500 respondent ishtirok etadi. So'rovnoma natijasiga ko'ra, 2017-yil Fransiya yumshoq kuch reytingida yetakchi davlat deb topildi, AQSh esa 2017-yilda madaniy diplomatiyasi sohasida birinchi bo'ldi. Yumshoq kuchni tashkil etuvchi barcha elementlarning umumiy yig'indisi bo'yicha 2017-yilda eng kuchli deb tanlangan Fransiya madaniyat sohasi bo'yicha Buyuk Britaniyadan keyin uchinchi o'rinni egalladi [8, 39-b]. Xuddi shu tashkilot tomonidan 2018-yilda o'tkazilgan so'rovnomada Angliya birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, AQSh esa madaniyat sohasida yana birinchilikni egalladi [9, 44-b].

Xulosa qilib aytganda, yumshoq kuch konsepsiyasi zamonaviy xalqaro munosabatlarda davlatlar o'rtasidagi ishonch, madaniy aloqalar va o'zaro anglashuvini mustahkamlashda muhim vositaga aylangan. Madaniy diplomatiya esa bu kuchning eng ta'sirli yo'nalishlaridan biri sifatida mamlakatning ijobiy imijni shakllantirish, ziddiyatlarni oldini olish va diplomatik aloqalarni yumshoq, ammo samarali vositalari orqali rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, davlatlar uchun yumshoq kuch siyosatini madaniy diplomatiya orqali izchil va tizimli tarzda rivojlantirish strategik zarurat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nye Joseph. *Soft power and higher education. Forum for the Future of Higher Education*, 2005. – p-54.
2. Yilmaz Sait. *Yumuşak Güç ve Evrimi. TURAN Stratejik araştırmalar merkezi dergisi*, 3(12), 2011. – s-31-36.
3. Nye Joseph. *Soft power and higher education. Forum for the Future of Higher Education*, 2005. – p-55.

4. Nye Joseph. *The Way to Success in World Politics: Soft Power*, 2005.
– p-10.
5. Nicolae Haneş., Adriana Andrei. *Culture as soft power in international relations. International Conference Knowledge-Based Organization*, No 1, Volume XXI, 2015. – p-33.
6. Kang Hyungseok. *Reframing Cultural Diplomacy: International Cultural Politics of Soft Power And the Creative Economy*, 2013. – p-1.
7. Anadolu Ajansı. *Türk dizilerinin eni hedefi Uzakdoğu pazarı*.
<https://www.aa.com.tr/tr/kultur-sanat/turk-dizilerinin-yeni-hedefi-uzakdogu-pazari/698829> 04.12.2016.
8. *The Soft Power 30. A Global Ranking of Soft Power*.
<https://softpower30.com/wp-content/uploads/2017/07/The-Soft-Power-30-Report-2017-Web-1.pdf>, 2017. – p-39.
9. *The Soft Power 30. A Global Ranking of Soft Power*.
<https://softpower30.com/wp-content/uploads/2018/07/The-Soft-Power-30-Report-2018.pdf>, 2018. – p-44.